

**“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJ EKSPLUATATSIYA
FAOLIYATINING ASOSIY TEXNIK-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI
TAHLILI**

*Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna
dotsent v.b., Toshkent davlat transport universiteti
Sharifova Olmaxon Sherali qizi
IQA-4 guruh talabasi, Toshkent davlat transport universiteti*

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ O‘zbekiston Respublikasida temir yo‘l transportida yuk va yo‘lovchilarni tashishni amalga oshiruvchi hamda tartibga soluvchi kompaniya hisoblanadi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning umumiyligi 7400 kmni tashkil etadi. Jamiyatda hozirgi kunda 79 mingdan ortiq xodimlar faoliyat ko‘rsatadi.¹

O‘zbekiston temir yo‘llarida so‘ngi 20 yil ichida amalga oshirilgan yirik investitsion loyihalarning samarali faoliyati natijasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning asosiy faoliyat ko‘rsatkichlarida dinamik o‘zgarishlar kuzatildi.


O‘zbekiston temir yo‘llarining mamlakatning umumiyligi transport tizimida tutgan ornini va ulushini quyidagi statistik ma’lumotlarni tahlil qilgan holda ko‘rishimiz mumkin.

2023-yilda barcha transport turlari orqali 1452,2 million tonna yuk tashildi, bu o‘tgan yilning yanvar-dekabriga nisbatan bor yo‘g‘i 1,5% ga ko‘p degani. Shu bilan birga, 2011 yilga nisbatan 13 yil davomida yuk tashish hajmi 69% ga ortgan. Bu albatta O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishning so‘nggi 10 yillikda juda yaxshi suratlarda o’sganini namoyon qiladi.

Temir yo‘l transportida yuk tashish hajmining o‘sish sur’ati 2011-2023 yillarda 125% ga teng, avtomobil transportida esa ushbu ko‘rsatkich huddi shu davr uchun 185% ga teng. Quvur va havo yo‘llarida mos ravishda 100,3% va 29% ga teng, ya’ni havo yo‘llarida yuk tashish hajmi keskin kamayib ketgan, bunga sabab havo yo‘llarida yuk tashish hajmi qimmat va yuk ko‘tara olish qobiliyati past. Quvur yo‘llarida esa cheklangan turdagи yuklar tashiladi, shuning uchun ham bu transport turida yuk tashish aktual emas. Yuqoridagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda transport bozorida yuk tashishda eng yirik tashuvchilar bu – avtomobil va temir yo‘l transporti hisoblanadi.

Chunki, O‘zbekistonning huduiy sharoiti suv transportini rivojlantirishga imkon bermaydi, shuning uchun quruqlikdagi transport turlarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan.

¹ <http://www.railway.uz>




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida turli transport turlari bo'yicha 2011-2023 yillar davomida yuk tashish hajmi dinamikasi, ming.t²

Yuqoridagi diagrammadan ko'rishimiz mumkinki, barcha transport turlari bo'yicha yuk tashish miqdori 2011-2023 yillar davomida tarkibiy jihatdan deyarli bir xil tendensiyada o'sib borgan.

Yuk tashish bo'yicha barcha transport turlari orasida avtomobil transporti ustunlik qiladi (1 309,40 mln.t.). 2011 yilda yuk tashish hajmida avtomobil transportining ulushi 82% bo'lgan, temir yo'l transporti hamda quvur transportining ulushi esa 7% ga teng bo'lgan. 2023 yilda quvur transportida 60,1 million tonna gaz, temir yo'l orqali 73,8 million tonna yuk tashildi. Yuklarni tashish bo'yicha eng past ko'rsatkich havo transportida qayd etildi – 8,9 ming tonna. Yuk tashish umumiy hajmining salmoqli qismini avtomobil transporti – 90%, boshqa transport turlarida tashish ulushi 10% ni tashkil etadi. Temir yo'l va quvur transportining ulushi 2023 yilda 7% dan mos ravishda 2% va 3% ga tushgan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan



2-rasm. 2011 yilda (chap) va 2023 yilda (o'ng) O'zbekiston Respublikasida turli transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmining solishtirma og'irligi³

2023-yilda barcha transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi hajmi 2011-yilga nisbatan 14,24 mldr t-kmga oshdi. Shu jumladan, temir yo'l transportida 13 yil ichida yuk aylanma miqdori 4,2 mldr. t-km ga oshdi, avtomobil transportida esa 12 mldr. t-km ga, quvur transportida 74,1 mln. t-kmga oshdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “O'zbekiston temir yo'llari” AJning so'nggi yillardagi faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kompaniya mamlakat transport tizimida muhim o'rinnegallab kelmoqda. 2011–2023 yillar davomida temir yo'l transportida yuk tashish hajmining 125% ga oshgani, yuk aylanmasining esa 4,2 milliard tonna-kilometrga ortgani temir yo'llarning iqtisodiyotdagi o'sishiga mos ravishda rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, avtomobil transportining yuqori ulushi va o'sish sur'ati bilan solishtirganda, temir yo'l transportining umumiyligi ulushi biroz kamayganini ham ko'rish mumkin. Bu esa, yuk tashish samaradorligini oshirish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xizmatlar sifatini yaxshilash orqali “O'zbekiston temir yo'llari” AJ oldida turgan dolzarb vazifalar borligini anglatadi. Kelgusida transport bozoridagi raqobatbardoshlikni oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va logistika xizmatlarini raqamlashtirish orqali temir yo'l transportining ulushi va ahamiyatini yanada kuchaytirish mumkin bo'ladi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan